


VII. XIZMATLAR

2026- yil 1-yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 14 808 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

2026- yil 1-yanvar holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining 12 317 tasi yoki 83,2 foizi kichik biznes sub'ektlarini tashkil etadi.

2025- yil yanvar-dekabr oylarida **bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari** bo'yicha hajmi 25 733,6 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 113,7 foizni tashkil etdi.

Navoiy viloyatida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va o'sish sur'atlari

	Jami xizmatlar hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Axoli jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi (ming so'm)	O'sish sur'ati, % da	shundan,		
					Kichik biznes xajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Jami	25 733,6	113,7	23 324,2	111,8	14 918,4	114,8	58,0
Navoiy sh.	7 777,9	116,8	46 050,3	113,3	3 149,9	125,2	40,5
Zarafshon sh.	2 114,8	113,9	23 163,6	111,5	1 196,4	112,6	56,6

	Jami xizmatlar hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Axoli jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi (ming so'm)	O'sish sur'ati, % da	shundan,		
					Kichik biznes xajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
G'ozg'on sh.	86,6	112,5	9 207,8	111,3	67,5	114,8	78,0
Karmana t.	3 071,9	114,0	21 436,9	111,5	1 697,9	114,9	55,3
Konimex t.	408,1	112,7	11 030,9	113,6	339,2	112,3	83,1
Qiziltepa t.	1 571,2	114,5	9 471,1	112,6	1 206,0	114,4	76,8
Navbahor t.	953,7	113,5	7 728,9	112,1	777,4	113,8	81,5
Nurota t.	674,1	112,8	7 383,3	111,4	608,5	111,3	90,3
Tomdi t.	201,9	112,2	13 281,0	113,7	170,9	113,0	84,6
Uchquduq t.	543,9	113,5	13 665,3	112,6	482,3	111,1	88,7
Xatirchi t.	1 318,6	113,3	6 054,3	111,7	1 038,6	111,2	78,8



Bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>o‘shish sur‘ati, % da</i>	<i>yakunga nisbatan, % da</i>
Jami xizmatlar	25 733,6	113,7	100,0
<i>shu jumladan: xizmat turlari bo‘yicha</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmati	963,2	127,6	3,7
moliyaviy xizmatlar	4 204,6	120,8	16,3
transport xizmati	3 914,0	112,7	15,2
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>			
yashash va ovqatlanish xizmatlari	6 885,9	109,5	26,8
savdo xizmatlari	5 169,8	109,8	20,1
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar	541,0	138,9	2,1
ta‘lim sohasidagi xizmatlar	501,4	99,9	1,9
sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	327,7	115,8	1,3
ijara xizmatlari	249,3	118,6	1,0
kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta‘mirlash xizmatlari	344,3	111,8	1,3
boshqa shaxsiy xizmatlar	569,0	113,4	2,2
Me‘morchilik, muxandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	931,3	118,2	3,6
boshqa turdagi xizmatlar	1 132,2	117,5	4,4

Bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘shish sur‘atlari (2024- yilning mos davriga nisbatan, % da)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (138,9), Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi (118,2 %), moliyaviy xizmatlar (120,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (127,6%) va ijara xizmatlari (118,6 %) da o'sish sur'ati yuqori bo'ldi.

(2025- yil yanvar-dekabr oylari, % da)



Xizmatlar tarkibida eng katta ulush yashash va ovqatlanish xizmatlari (26,8 %), savdo (20,1 %), moliyaviy (16,3 %), transport (15,2 %) hamda boshqa turdagi xizmatlar (4,4 %) ga to'g'ri keldi.


Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

	ming so'm	O'sish sur'ati, % da
Jami xizmatlar	23 324,2	111,8
<i>shu jumladan: xizmat turlari bo'yicha</i>		
aloqa va axborotlashtirish xizmati	873,0	125,5
moliyaviy xizmatlar	3 810,9	118,8
transport xizmati	3 547,5	110,8
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>		
yashash va ovqatlanish xizmatlari	6 241,2	107,7
savdo xizmatlari	4 685,8	108,0

	<i>ming so‘m</i>	<i>O‘shish sur‘ati, % da</i>
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar	490,3	136,6
Ta‘lim sohasidagi xizmatlar	454,5	98,2
sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	297,0	113,9
ijara xizmatlari	225,9	116,7
kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta‘mirlash xizmatlari	312,1	109,9
boshqa shaxsiy xizmatlar	515,7	111,5
me‘morchilik, muxandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	844,1	116,2
boshqa turdagi xizmatlar	1 026,2	115,5

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar 2025-yil yanvar-dekabr oylarida 23 324,2 ming so‘mni yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 111,8 foizni tashkil etdi.


Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlarning o‘tgan yilga nisbatan o‘shish sur‘atlari, % da



Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmida yashash va ovqatlanish xizmatlari (6 241,2 ming so‘m), savdo xizmatlari (4 685,8 ming so‘m) hamda moliyaviy xizmatlar (3 810,9 ming so‘m) yuqori ulushni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (136,6 %), Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar (116,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (125,5 %), boshqa xizmatlari (115,5 %) ijara xizmatlari (116,7 %), shaxsiy xizmatlar (111,5 %) va moliyaviy xizmatlar (118,8 %) da o'sish sur'ati yuqori bo'ldi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, ming so'm




Ushbu ko'rsatkich bo'yicha Navoiy shahri yetakchi o'rinni egalladi. Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 46 050,3 ming so'mga yetdi. Zarafshon shahar (23 163,6 ming so'm) va Karmana (21 436,9 ming so'm) tumanida ham boshqa hududlarga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi ko'paygan. Navbahor tumani (7 728,9 ming so'm), Nurota (7 383,3 ming so'm), Xatirchi (6 054,3 ming so'm) tumanlarida esa boshqa hududlarga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi kamligini ko'rishimiz mumkin.

Xizmatlar hajmida katta ulushga ega bo'lgan sohalar


<i>T/r</i>	<i>Iqtisodiy faoliyat turlari</i>	<i>Hajmi mlrd. so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, % da</i>
	Jami – xizmatlar	25 733,6	113,7	100,0
1.	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	6 885,9	109,5	26,8
	shundan:			
	Yashash bo'yicha xizmatlar	164,6	116,5	2,4
	Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar etkazish bo'yicha xizmatlar	6 721,3	109,4	97,6
2.	Savdo xizmatlari	5 169,8	109,8	20,1
	shundan:			
	shu jumladan:avtomobillar va motosikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar; avtomobillar va motosikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	568,1	107,1	11,0
	Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari)	608,2	111,5	11,8
	Avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar	3 993,5	110,0	77,2
3.	Moliyaviy xizmatlar	4 204,6	120,8	16,3
	shundan:			
	Sug'urtalash va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar	4 042,8	122,1	96,2
	Sug'urtalash, qayta sug'urtalash va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlar, majburiy ijtimoiy sug'urtalash bo'yicha xizmatlardan tashqari	113,6	94,7	2,7
	Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlar	48,2	98,9	1,1
4.	Transport xizmatlari	3 914,0	112,7	15,2
	shundan:			
	Quruqlikdagi transport xizmatlari va quvurlar orqali yetkazib berish bo'yicha xizmatlar	2 981,9	113,0	76,2
	Omborga joylashtirish xizmatlar va yordamchi transport xizmatlari	889,6	112,1	22,7
	Pochta va kurerlik xizmatlari	42,5	108,7	1,1
5.	Boshqalar	1 132,2	117,5	4,4

2025- yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibi



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.


2025- yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlarining tarkibi



Huddi shunday, savdo xizmatlaring hajmi 5 169,8 mlrd. soʻmga yetib, koʻrsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 20,1 foizni tashkil etdi.

Chakana savdo xizmatlari umumiy savdo xizmatlari hajmining 77,2 foizini, avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (ularni taʼmirlash xizmatlarini qoʻshgan holda) xizmatlari esa 11,0 foizni, ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 11,8 foizni tashkil etdi.

2025- yil yanvar-dekabr oylarida taʼlim sohasidagi xizmatlar dinamikasi



“Taʼlim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmogʻi va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi taʼlimni va turli kasblarga oʻrgatishni oʻz ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan taʼlim, shuningdek, kattalar uchun taʼlim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), taʼlim sohasida yordamchi faoliyat va shunga oʻxshash boshqalar kiradi.

Taʼlim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy oʻqitish shaklini ham hisobga olgan holda koʻrsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.


2025- yil yanvar-dekabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida yashash va oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar mavjud bo'lib, 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – 109,4 foiz.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, hotellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

2025- yil yanvar-dekabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




2025- yil yanvar-dekabr oylarida ijara xizmatlari


2025- yilning yanvar-dekabr oylarida ijara xizmatlari hajmi 249,3 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida 2025- yil yanvar-dekabr oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi 70,7 % ni tashkil etdi.

2025- yil yanvar-dekabr oylarida ijara xizmatlari dinamikasi



2025- yil yanvar-dekabr oylarida koʻchmas mulk bilan bogʻliq xizmatlar




Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.


2025- yil yanvar-dekabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning 2025-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'atlari



2025- yil yanvar-dekabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi, mlrd. so'm



2025-yil yanvar-dekabr oylarida sog'liqni saqlash sohasining umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 1,3 %ni tashkil etdi.